O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

Ro'yxatga olindi: № 60-60230100 2024-yil "10" 03		**"TASDIQLAYMAN"** SamDU rektori: R.I.Xalmuradov 2024-yil "__"_____

MAMLAKATSHUNOSLIK

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	230000 – Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
MAM1108 MAM1208	2024-2025	I II	4 4
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek		4

	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami (soat)
1.	Mamlakatshunoslik	50 50	70 70	120 120

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	**Fanni o‘qitishdan maqsad** – o‘rganilayotgan mintaqa xalqlari tarixiy rivojlanishining asosiy qonuniyatlari va bosqichlari; o‘rganilayotgan mintaqa xalqlarining tarixi; mintaqa tarixiy geografiyasi haqida manbalar va ilmiy adabiyotlar; o‘rganilayotgan mintaqa xalqlarining madaniyati va tarixiy-madaniy obidalarga oid umumiy va xususiy masalalar; o‘rganilayotgan mintaqa xalqlarining tarixi va turli bosqichlarda erishgan yutuqlarining umumbashariy sivilizatsion ahamiyati, ma’naviy asoslari, umumiy va milliy xususiyatlari, diniy konfessiyalarining umumiy va xos xususiyatlari haqida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdir. **Fanning maqsadi**-talabalarda fanning nazariy va amaliy masalalarini, shuningdek, tili o‘rganilayotgan mamlakat haqida asosiy ma’lumotlar, geografik tuzilishi, hududiy bo‘linishi, iqlimi, ta’lim tizimi, xalqaro aloqalari, O‘zbekiston-Turkiya hamkorlik aloqalari, Turkiya iqtisodiyoti, madaniyati va tarixiy-madaniy shahrlari, inshootlari, yoshlar hayoti, ommaviy axborot vositalari haqida o‘rgatishdan iborat.
Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M)	
M1	**Kirish. “Mamlakatshunoslik” faniga kirish. Fanning maqsad va vazifalari.** Fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalar. Fanning boshqa fanlar bilan munosabati. Kursni o‘qitishning muhimligi. Turkiya Respublikasining shakllanishi, turkiy xalqlar tarixi, jahondagi mavqei, xalqaro munosabatlari, ta’limdagi yutuqlari, tili, davlat ramzlari bilan tanishtirish kursning asosiy vazifasidir. Har bir davlat o‘z mamlakatshunosligining milliy tarixiga ega. Chunki boshqa davlatlar haqida bilish har qanday ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hamjamiyatning zaruriy elementi hisoblanadi. Jahon siyosiy maydonida yaxlit bir butun bo‘lib harakat qiluvchi lurli-tuman, ammo o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan yagona tizim sifatidagi dunyo mamlakatlari va mintaqalari “Mamlakatshunoslik” fanining predmeti hisoblanadi.

	“Mamlakatshunoslik” iqtisodiy va huquq elementlari bilan geografiyaning eng qadimgi va e’tirof etilgan sohalaridan biridir. “Mamlakatshunoslik” - bu, dunyo mamlakatlarini har tomonlama o‘rganadigan, ularning tabiati, aholisi va ichki joylashuv farqlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tadqiq qiladigan, tizimlashtiradigan va umumlashtiradigan fan va o‘quv kursi hisoblanadi. Talabalar ma’ruza mashg‘ulotida olgan bilimlarini mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish jarayonida mustahkamlab oladilar.
M2	**Turkiya haqida umumiy ma’lumot. Turkiya tarixi, aholisi, davlat tizimi, ramzlari** Turkiya — yuksak koloritli va ko‘p millatli, ayni paytda, aholining 95 foizi islom diniga e’tiqod qiiadigan davlat. Shu tufayli xalqning madaniy an’ana va urf-odatlarini asrash, rivojlantirish imkoniyati saqlangan. Turkiyaning noyob tabiiy resurslari savdo va turizm kabi ulkan daromadli sohalarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratadi. Ta’kidlash joizki, 1923-yilda Turkiyaning jumhuriyat deb e’lon qilinishidan oldin turklar “usmoniylar” deb atalgan. Mustafo Kamol Otaturk xalqqa “usmonlilar” o‘rniga “turklar” nomini olishni taklif qilgan. Chunki, Usmonli imperiyasi shakllanishidan oldin millat turklar deb nomlangan. Shunday qilib, usmonlilar - turklar, Usmonli imperiyasi - Turkiya Respublikasi, deb o‘zgartirilgan. Shu tariqa, turklarni millat sifatida qayta tiklash yo‘li olingan. Mamlakatning barcha fuqarolari turklar deb e’lon qilingan va maktablarda faqat turk tilini ona tili sifatida o‘qitishga ruxsat berilgan. Oltoy tog‘lari turklarning tarixiy vatani hisoblanadi. Mo‘g‘ullar turkiy aholi istiqomat qilgan joyning sharqida yashagan. G‘arb tomondagi qo‘shnilar ugro-finlar, ya’ni hozirgi finlar, vengerlar, estonlarning o‘tmishdoshlari bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan turklar O‘rta Osiyoga joylashgan. Pirovardda, IX asrda ular yaratgan imperiya qit’aning ulkan hududlarini o‘z ichiga oldi. Markaziy Osiyoning g‘arbiy mintaqalarida yashagan o‘g‘uz turklari islomni qabul qilgan. Keyinchalik ulami turkmanlar va saljuqiylar deb atagan. Mesopotamiyaga ko‘chib o‘tganidan keyin turklar Yaqin Sharq va butun musulmon dunyosida asosiy kuchga aylangan.

M3	**Turkiyaning hududiy bo'linishi** Turkiya Respublikasining geografik joylashuvi, iqlimi, yirik shaharlari, hududiy bo'linishi. Turkiy xalqlar yashagan hududlar, yirirk shaharlarining o'ziga xosligi, tabiati. Turkiya - geografik joylashuvi nuqtai nazaridan, noyob mamlakat hisoblanadi. Turkiya ikkita qit'a: Osiyo va Yevropani, boshqacha qilib aytganda, Yevroosiyoni birlashtirib turuvchi davlat. Bir vaqtning o'zida yer sharining ko'proq Osiyo, qisman Yevropa va Yaqin Sharq mam- lakatlariga dahldorlik ham Turkiyaga oiddir. Turkiya geografiyasining o'ziga xos xususiyati - uning ikki qit'a bog'lanishida joylashganidadir. Osiyo bilan Yevropani suv va quruqlik yollari bilan bog'laydigan strategik ahamiyatga ega Dardanell va Bosfor bo'g'ozlari - Qora dengizni dunyo okeani bilan bog'laydigan xalqaro yo'l ekanligi bilan muhim hisoblanadi. Shu yo'llar orqali Turkiya dunyoning ko'plab davlatlari, xususan, Afrika bilan ham bog'lanadi. Dardanell bo'g'ozi Bolqon yarim oroli bilan Kichik Osiyo yarim orolini ajratib, Marmara va Ege dengizlarini bir-biri bilan bog'laydi. Bosfor bilan birgalikda bu ikki dengiz Qora dengiz bilan ham bog'lanadi.
M4	**Turkiya etnografiyasi** Miloddan avvalgi I ming yillikda G'arbiy Anatoliya aholisi ushbu mintaqani IX asrda mustamlaka qilgan aborigen va yunonlardan iborat bo'lgan. O'rta Yer dengizi mintaqasi tarixidagi Aleksandr Makedonskiy vafotidan keyin Rim hukmronligining o'rnatilishini o'z ichiga olgan davrga kelib, Anado'lining deyarli barcha aholisi (sharqiy va ba'zi markaziy mintaqalar bundan mustasno) tili va madaniyatiga ko'ra grek va armanlarning qarindoshlari bo'lmish assimilyatsiyalashgan ko'ch-manchi-yunonlar va ellinlashgan-armanlardan tashkil topgan abori-genlardan iborat bo'lgan. Rim imperiyasi davrida ham shunday bo'lgan. Turkiya Respublikasining paydo bo'lishi bilan "turklar" etnonimi qonun darajasida aks ettirilgan. 1924-yil aprelda qabul qilingan Turkiya Konstitutsiyasining 88-moddasiga ko'ra "Turkiyaning barcha fuqarolari, diniy va milliy mansubligidan qat'i nazar, turklar deb ataladi", deyilgan. Turkiya asrlar davomida bir-birini yetaklab kelayotgan. savdo, tijorat va geologik tadqiqotlar chorrahasidagi Islom, arab dunyosi va Yevropa, G'arb dunyosi o'rtasida joylashgan madaniyatlar va ularning o'ziga yarasha "qaynagan qozonidir". Asrlar davomida turli xalqlar va insonlar Turkiyaga ko'chib kelgan bo'lsa-da, bugun demografik jihatdan etnik

	turklar hukmronlik mavqeiga ega. Turkiya aholisining 99,8% musulmon bo'lib, bu uni dunyodagi eng musulmonlashgan davlatlardan biriga aylantirgan.
M4	**Turkiya hududida qadimgi davlatlarning tashkil topishi** Hozirgi Turkiyaning ilk ma'lum bo'lgan manzillari miloddan avvalgi 7500-yilda O'rta Yer dengizi mintaqasida Chatal Guyuk (XVuyuk) nomi bilan paydo bo'lgan. Bu manzil hozirgi Konya shahri yaqinida. Ana shundan boshlab qudratli davlatlar shu qadar tezkor hamda tartibsiz vujudga kelgan va yo'q bo'lib ketgan-ki, bu jarayonlar xronologiyasini qayd etish, voqea-hodisalar tafsilotini tarixiy faktlar asosida aniq bitishning imkoni bo'lmagan. Shu sababli mavjud manbalar turklar vatani hisoblangan Kichik Osiyo va uning qadim tarixi haqida to'laqonli ma'lumot berish imkoniyatidan yiroq. Miloddan avvalgi 2600 - 1900 yillarga kelib, bronza asri gullab-yashnayotgan edi. Bu davrda Turkiya hududida doimiy, biroq uncha katta bo'lmagan yashash manzillari paydo bo'la boshlagan. Asl kelib chiqishi hind - yevropaliklardan sanalgan birinchi yirik tamaddun bu mintaqada xettlar tomonidan yaratilgan bo'lib, odamlar quyosh ma'budasi, yomg'ir va bo'ron xudosiga sig'ingan. Xettlar Anado'lida bronza davrining o'rtalaridan boshlab (miloddan avvalgi 1900 — 1600 yillar) o'z hukmronligini o'rnatgan.
M5	**Buyuk ko'chishlar. Qadimgi turklarning Kichik Osiyoga kelib o'rnashishi** Yevroosiyoga dastlabki ko'chmanchilar 10 ming yil avval borib o'rnashgan. Turkiyaning janubi-g'arbida joylashgan shahar tipidagi Chatal-Guyuk aholi manzili taxminan 10 ming yildan ham ko'proq tarixga ega. Bu shahar neolit davriga xos matriarxat madaniy taraqqiyotining yuksak namunasidir. Aynan shu shahar hech qanday jamoat joylariga ega bo'lmasa-da, dunyoda eng qadimgi shahar, yirik inson manzilgohi hisoblanadi. Mazkur namunalar insoniyat tamaddunining timsolidir. Ular qanchalik qadim bo'lmasin - u yoki bu qavm yoki qabilaga mansubligi noma'lum. Ma'lim narsa shu-ki, bugungi kunda qayd etilgan tarixiy obidaiarga o'xshash minglab yodgorliklar Turkiya hududida yaratilgan, turklarning mulki sanaladi. Keyingi ming yillar davomida turklar urug', qabila, xalq sifatida shakllanishning uzoq tarixiy yo'lini bosib o'tgan. Ular katta qismining ko'chmanchilikka xos hayot shaklini, turmush madaniyatini kuzatish

	mumkin. Ularning asosiy kuchi yengil vaznli, tezkor, jangovar qilish imkoniyati qulay bo'lgan gildirakli harbiy aravalar hisoblangan. Bu aravalar, ayniqsa, miloddan avvalgi III ming yillik oxiridan miloddan avvalgi II ming yillikkacha bo'lgan davrda xettlarda, hind-ariy xalqlarida, yunonlarda, misrliklarda keng qo'llanilgan.
M6	**V asr oxiri -XI asr o'rtalarida Kichik Osiyo** Kichik Osiyo ko'plab madaniyatlar va davlat tuzilmalarining beshigi hisoblanadi. Hozirgi Turkiya hududi qadimgi insonlarning yerga ishlov berishdagi ibtidoiy usullaridan madaniy shakllariga o'tgan joy sanaladi. Saljuqiy turklar XI asrda Arman tog' tizmalarining bir qismini, keyinchalik Vizantiya imperiyasi va Armanistonni bo'ysundirgan dastlabki turk sulolasi hisoblanadi. Ular Kichik Osiyoda shu davrdan boshlab bekliklar tashkil eta boshlagan. Saljuqiylarning 1071-yilda Malazgirt (Mantsikert) yonida vizantiyaliklar ustidan qozongan g'alabasi bilan Kichik Osiyoda xristianlik davri tugagan, grek (rum) hukmronligi barham topgan va turk-musulmon davlatchiligining yangi shakli boshlangan davr sifatida izohlanadi. Bu g'alaba Kichik Osiyoning tamoman saljuqiylar ixtiyoriga o'tganligini bildirar edi. Turklar tez va osonlik bilan mamlakat ichiga qarab kirib borgan va XIII asr oxiriga qadar hukm surgan qudratli Saljuqiylar davlatiga asos solgan.
M7	**XI-XV asrlarda Kichik Osiyo. Usmoniylar imperiyasining tashkil topishi** XI asr oxirlaridan boshlab, Saljuqiylar davlati tarkibidan bir necha mustaqil sultonlik ajralib chiqqan. XIII asming ikkinchi yarmida Kichik Osiyodagi Saljuqiylar davlati yemirilishi va XIII - XIV asrlarda mo'g'ul Xulagular imperiyasidagi vaziyatning o'zgarishi bilan Anado'li hududida qator mustaqil amirlik-bekliklar tuzish uchun shart-sharoit yuzaga kelgan. Mo'g'ul bosqinchilari va Konya hukmdorlariga har yili to'lab turilagan o'lponlari borligi sabab, bu bekliklar rasman, anig'i, nomiga tobe bo'lgani holda, aslida, ular hech qancha o'tmasdan mustaqil davlat tuzilmalariga aylangan. Usmon bekligi, ba'zi manbalarda Usmon amirligi ham deyiladi - XIII asrda Kichik Osiyoda vujudga kelgan hududiy turkiy tuzilma hisoblanadi. Beklikning boshida Usmoniylar sulolasi turgan. Keyinchalik beklikning barcha aholisi shu nom bilan atala boshlagan. XIII asr o'rtalarida beklikning poytaxti Syogut bo'lib, unchalik katta bo'lmagan chegara hudud - "uj"ni qamrab olgan edi. Usmoniylar bu hududni Vizantiyani bosib olgandan keyin

	qo'lga kiritgan va turkiy aholini ko'chirgan. XIV asr boshida Usmoniylar sulolasining muvaffaqiyatli harbiy yurishlari natijasida beklik hududi tinimsiz kengaygan va qudratli Usmoniylar imperiyasining asosiga aylangan.
M8	**XVI-XVIII asrlarda Usmoniylar imperiyasi** Usmoniy sultonlarning buyugi sanalgan Sulaymon I davrida saltanat o'z taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisiga yetgan. Islom olamida Qonuniy nomi bilan mashhur Sulaymonni Yevropa muhtasham sulton sifatida e'tirof etgan. Sulaymon I ham san'at va hunarmandchilikning saxiy homiysi bo'lib, masjidlar, madrasa, maktab, kasalxona, ko'priklar va boshqa foydali inshootlar bunyod ettirgan. Huquqshunoslikni isloh qilib, tarixda qonunshunos sifatida nom qoldirgan. Usmoniylar imperiyasi iqtisodiyotidagi o'zgarishlar ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalariga ta'sirini o'tkazgan. Ayniqsa, armiyada kuchli sezilgan. Muntazam qo'shin soni oshgan asr birinchi yarmida Usmoniylar olib borgan urushlar uning harbiy quvvati zaiflashganligini bildirar edi. Armiyaga yirik mablag'lar ajratilayotgan bo'lishiga qaramasdan, rivojlanayotgan davlatlardan harbiy-texnik jihatdan tobora ortda qolmoqda edi. Usmoniylar imperiyasi hayoti davomida juda ko'plab inqirozlarni, Fransiyadagi diniy urushlar yoki Markaziy Yevropadagi o'ttiz yillik urushlarni boshidan kechirgan.
M9	**XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Usmoniylar davlati** XIX asr oxirida Usmoniylarning chet davlatlarga qaramligi kuchayadi. Angliya va Fransiyaning bu imperiyaga qarshi bosqinchilik kurashiga Germaniya ham tortilgan edi. Shuningdek, Rossiya podsholigi ham chetda qolmagan. Bularning barchasi Turkiyaning mustamlaka holiga tushishini tezlashtirgan. Mamlakatning ichki ahvoli o'ta og'ir bo'lib, qishloq xo'jaligi og'ir holatda, hosildorlik tamoman past edi. Bularning barchasi Usmoniylarning nafaqat tashqi dushmanlarga qarshi kurashini, balki davlat va millat sifatida mavjud bo'lish masalasini ko'ndalang qilib qo'ygan edi. Qator daviatlarda sodir bo'layotgan inqiloblar Usmoniylar davlatida ham yetilayotgan edi. 1905-yilda boshlangan rus inqilobi Usmoniylar inqirozini yanada chuqurlashtirgan. Rus inqilobi Usmoniylar hayotiga ta'sirini o'tkazmasdan qolmagan. Mamlakatda "yosh turklar" oyoqqa turgan. Turk inqilobchilari xalqni Eron va Rossiyadagi inqiloblar singari harakatga chorlagan. Natijada 1906- yilda Erzurumda g'alayon ko'tarilgan, sulton hukumati uni bostira olmagan. Albaniya janubida milliy inqilobiy qo'mitalar tuzilgan. 1906 - 1907 yillarda qurollangan alban qo'zg'olonchilari harakatlari yanada

	kengaygan. 1903-yilda Makedoniyada g'alayon ko'targan. Hukumat qo'shini g'alayonni shafqatsizlik bilan bostirgan bo'lsa-da, vaziyat keskinligicha qolgan.
M10	**Turkiya Respublikasining tashkil topishi** Turkiya Respublikasining tashkil topishi Mustafo Kamol posho rahbarligida chet el harbiy bosqinchilariga qarshi olib borilgan mustaqillik urushi bilan bevosita bog'liq. Bu urush 1919-yil 19- maydan 1923-yil 29-oktabrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Urush grek qo'shinlarining 1919-yil may oyida Izmirni bosib olishi bilan boshlangan. 1923-yilda imzolangan Lozanna tinchlik shartnomasi bilan yakunlangan. 1923-yil 13-oktabrda Turkiya davlatining poytaxti Anqara deb e'lon qilinadi. Bundan ko'zlangan maqsad sulton hokimiyati va u bilan bog'liq barcha narsalarning timsoli bo'lgan Istanbuldan uzoqlashish edi. Bu paytda hali sultonlik tartibi bilan yaqin bo'lgan insonlar ko'p edi. Shuningdek, poytaxtni ko'chirish orqali Usmoniylar imperiyasining asosiy muammosi bo'lgan korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish ham ko'zlangan. Shunga muvofiq barcha chet el elchilari Anqaraga ko'chib olishlari shart bo'lgan. Bu haqda chet davlatlarga e'lon yuborilgan. 1924-yil 3-martda Usmoniylar xalifaligi butunlay tugatiladi. 1924-1934 yillarda davlat tuzilishi, huquqiy munosabatlar, madaniy va maishiy sohalarda islohotlar o'tkazilgan.
M11	**II jahon urushi va undan keyingi yillarda Turkiya** Mustafo Kamol Otaturk 1938-yil 10-noyabrda vafot etadi. Turkiya hukmron siyosiy doiralari zimmasiga II jahon urushi arafasida mamlakatning keyingi davrlarga mo'ljallangan siyosatini belgilash vazifasi yuklanadi. 1939-yil aprelda Italiyaning Albaniyani bosib olishi bilan Bolqonlarda vaziyat keskinlashadi. Yevropada bu davrda avj olgan "katta diplomatik o'yin" sharoitida 1939-yil may oyida Buyuk Britaniya bir tomonlama tartibda Turkiya suverenitetini kafolatlagan. Keyin ikki davlat o'rtasida xavfsizlik kafolatlari to'g'risida kelishuv imzolangan. Undan so'ng darhol Turkiya-Angliya-Fransiya davlatlari o'rtasida uch tomonlama ittifoqchilik shartnomasi imzolash harakati boshlangan. Biroq Turkiya Fransiyaning bu ittifoqqa qo'shilishiga qarshi shart qo'ygan. Unga ko'ra, 1938-yil 7-sentabrdan 1939-yil 29-iyungacha hukm surgan Xatay davlati (Xatay Respublikasi ham deyilgan)

	Turkiyaga qo'shilishi kerak bo'lgan. Turkiya - konstitutsiyaga muvofiq unitar davlat hisoblanadi. Ma'muriy jihatdan viloyatlarga bo'linadi. Hozirgi kunda 81 ta viloyat mavjud. Konstitutsiyaga ko'ra Turkiya demokratik, dunyoviy va ijtimoiy-huquqiy davlat sanaladi.
M12	**Turkiya Respublikasi — xalqaro munosabatlar tizimida** Turkiyaning bir necha geopolitik tuzilmalar orasida joylashganligi uning iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ko'p qirralilik Turkiya tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bu ustuvorlik, ayniqsa, G'arbga yo'naltirilganlik bilan izohlanadi. Yevropa Ittifoqiga kirish uchun Turkiya 1987-yilda murojaat qiladi. 1952-yilda Turkiya NATOga, 1995-yilda Yevropa Iqiisodiy Ittifoqiga a'zo bo'ladi. Turkiya hukumati AQSh bilan yaqin hamkorlik siyosatini olib bormoqda. Ikkinchi jahon urushidan keyin bu yo'nalishdagi siyosat jadallashgan. Vashington Anqaraga o'zining Yaqin Sharqdagi siyosiy va harbiy ittifoqchisi maqomini bergan. Tashqi siyosiy yo'nalish mamlakat ichki siyosatining uzviy davomi hisoblanadi. Shuningdek, davlatlarning mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar oldidagi majburiyatlaridan kelib chiqib ham tashqi siyosat yuritiladi. Bugungi kunda Turkiya BMT (1945), XVJ (1947), NATO (1952) kabi nufuzli tashkilotlar a'zosidir. Shuning uchun ham Turkiya tashqi siyosatining ko'p qirraliligi - u yoki bu masalalarda milliy manfaatning ustuvorligi bilan belgilanadi.
M13	**XXI asr boshida Turkiya ijtimoiy-madaniy hayoti** Turkiyaning yirik shaharlari markaziga nisbatan ulaming atrofida aholi sonining o'sish sur'ati, shaharlashish darajasi yuqori. Qishloq joylardan ishsiz aholining ko'plab kelish oqimi ham aynan shu joylarga xos. Uskudar shahridan Izmirgacha bo'lgan masofada joylashgan hudud yoppasiga urbanizatsiyalashgan bo'lib, davlat savdo aylanmasining 50 foizdan ko'prog'ini tashkil etadi. Turkiyaning bugungi ta'lim tizimiga 1923-yilda Turkiya Respublikasining e'lon qilinishi bilan asos solingan. 1924-yilda bepul umumiy majburiy ta'lim, 1927-yilda barcha ta'lim darajalarida o'qitish tizimi joriy qilingan. Zamonaviy Turkiyada umumiy o'rta ta'lim davlat markaziy hokimiyati tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Bu tizim uchun har yili davlat umumiy budjetining o'rtacha 10 foizi ajratiladi. Ta'lim vazirligi taiimni boshqarish tizimini qattiq nazorat ostiga oigan: o'quv dasturlarini yaratish, rasmiy, xususiy va ko'nglililik asosida tashkil etiigan ta"lim muassasalari faoliyatini

	muvofiqlashtirish uchun mas'uldir O'quv yili ta'lim muassasasining shahar yoki qishloqda joylash- ganligiga qarab, sentabr oyining ikkinchi yarmida boshlanib, iyun oyining o'rtalariga qadar davom etadi.
M14	**Turkiy tillar haqida umumiy ma'lumot.** Hozirgi va qadimgi turkiy elatlarning tillari, oltoy tillar oilasi, uning tarqalishi, turkiy tilda so'zlashuvchi millatlar soni, bobo til, qadimgi turkiy yozma yodgorliklar, turkolog olimlar, turkiy tillarning tarqalish geografiyasi, turkiy tillar tasnifi, turkiy tillarning grammatik xususiyatlari haqida. hozirgi va qadimgi turkiy ellar va elatlarning tillari. Asosan, O'zbekiston, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, XXR, Afg'oniston, Eron, Tojikistonda, shuningdek, Bolgariya, Ruminiya, Ukraina, Germaniya, Kipr, Shimoliy Makedoniya, Albaniya, AQSh, Saudiya Arabistoni va boshqa bir qancha mamlakatlarda tarqalgan. O'tgan asr oxiridagi ma'lumotlarga ko'ra, Turkiy tillarda so'zlashuvchilarning umumiy soni 130 million kishidan ortiq. Ba'zi olimlar Turkiy tillarni mo'g'ul tillari hamda tungus manjur tillari bilan birga qo'shib, oltoy tillari oilasiga birlashtiradilar. Y.D.Polivanov, G.Y.Ramstedt kabi tilshunoslarning fikricha, ushbu tillar oilasi koreys va yapon tillarini qo'shish hisobiga kengayishi mumkin. Oltoy nazariyasiga ko'ra, Turkiy tillarning tarixi oltoy tillari bir til bo'lib tashkil topgan qadim zamondan – oltoy davridan boshlanadi. Oltoy bobotili (asos til) dastlab 2 ga – tungus-manjur va turk-mo'g'ul tillariga, so'ngra turk-mo'g'ul tili ham 2 ga – turk va mo'g'ul tillariga ajralgan. Turkiy tillar deganda, Sibirdan Bolqon yarim oroligacha bir chiziq bo'ylab cho'zilgan ulkan geografik hududda tarqalgan o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, saxa (yoqut), tuva, xakas, oltoy, karagas, shor, turkman, ozarbayjon, turk, gagauz, tatar, boshqird, chuvash, qo'miq, no'g'ay, qorachoybolqor, tofalar, chuvash kabi 25 dan ortiq til tushuniladi. Turkiy tillar hozirgi tarqalish geografiyasiga ko'ra, quyidagi mintaqalarga ajratiladi: O'rta va Janubiy.
M15	**Turkiyada til siyosati.** Turk til qurumi tuzilishi, faoliyati, til o'qitishning takomillashuvi, harf va imlo islohoti, turk tilining xorijiy til sifatida o'qitishga bo'lgan e'tibor haqida. Turkiyada til siyosati davlat tili, ta'lim tili, siyosiy tashviqot tili kabi elementlarni, shuningdek, fuqarolar foydalanadigan yoki foydalanishi

	kutilayotgan til yoki tillarga nisbatan rasmiy qarash, mafkura, istiqbolni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ularning kundalik hayotida, rasmiy ishlarida, davlat muassasalari bilan munosabatlarida va bu yo'nalishdagi barcha turdagi huquqiy me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qamrab oladi. Til siyosati tarixan modernizatsiya jarayonlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Modernizatsiya jarayonining tayanchi bo'lgan urbanizatsiya aholining o'sishi, sanoatlashtirish, dunyoviylashtirish, markazlashtirish va byurokratlashtirish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Til siyosati milliy davlatning modernizatsiya jarayonining eng muhim ishtirokchisi bo'lgan turli etnik, diniy va lisoniy kelib chiqishi bo'lgan inson jamoalari yoki subyektlardan zamonaviy millat yaratish maqsadi doirasida ta'sischi ahamiyatga ega. Turk Tili Qurumi (turk. Türk Dil Kurumu, TDK) turk tilini tartibga soluvchi organ bo'lib, 1932-yil 12-iyulda Mustafo Kamol Otaturk tashabbusi bilan tashkil etilgan va qarorgohi Turkiyaning Anqara shahrida joylashgan. Muassasa til bo'yicha rasmiy organ vazifasini bajaradi, turk tili va boshqa turkiy tillar bo'yicha lingvistik tadqiqotlarga hissa qo'shadi hamda turk tilining rasmiy lug'ati "Güncel Türkçe Sözlük"ni nashr etish bilan shug'ullanadi. Biroq so'nggi paytlarda tashkilotning e'tibori globallashuv jarayoni natijasida boshqa ko'plab tillar kabi turk tilining ham inglizcha so'zlar bilan doimiy ravishda kirib borishiga qaratildi. 1980-yillardan beri TDK ushbu yangi inglizcha so'zlarning turkcha ekvivalentlaridan foydalanish uchun kampaniyalar olib boradi. Bundan tashqari, agar bunday ekvivalentlar mavjud bo'lmasa, mavjud turkiy ildizlardan bunday so'zlarni yasash va turk aholisining kundalik hayotida ingliz tilidagi ekvivalentlari o'rniga ushbu yangi variantlarni qabul qilinishini faol targ'ib qilish vazifasi ham bor.
M16	**Tillar taraqqiyotining yangi davri.** Dunyo tillari va rivojlanayotgan hamda yo'qolib borayotgan tillar, til hodisalari evolyutsiyasi, til o'qitishning zamonaviy usullari, masofaviy o'qitish, xalqaro tillar haqida. Insonda til rivojlanishi hayotning dastlabki yillarida boshlanadigan jarayondir. Chaqaloqlar tilni bilmasdan yashashni boshlanadi, ammo 10 oyligida chaqaloqlar nutq tovushlarini ajrata oladilar va turli ovozlar chiqara boshlaydilar. Odatda, bolalarda og'zaki yoki ekspressiv til rivojlanishidan oldin retseptiv til qobiliyatlari rivojlanadi. Retseptiv til -

	bu tilni ichki qayta ishlash va tushunish. Retseptiv til o'sishda davom etar ekan, ekspressiv til asta-sekin rivojlana boshlaydi. Odatda, mahsuldor/ekspressiv til og'zaki muloqotdan oldingi bosqichdan boshlanadi, bunda chaqaloqlar o'z niyatlarini boshqalarga ma'lum qilish uchun imo-ishoralar va tovushlarni ishlatadilar. Rivojlanishning umumiy prinsipiga ko'ra, yangi shakllar eski funksiyalarni o'z zimmasiga oladi, shuning uchun bolalar so'zlarni maqol yordamida ifodalagan bir xil kommunikativ funktsiyalarni ifodalashni o'rganadilar. Bugungi kunda dunyoda insonlar so'zlashadigan yetti mingdan ortiq tildan uch mingi, 21-asr oxiriga kelib yo'q bo'lib ketish xavfi ostida. "Xalqaro ona tili kuni" 1999-yilda Bangladesh tashabbusi bilan UNESCO (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti) Bosh konferensiyasida tasdiqlangan va 2000-yildan buyon har yili 21-fevralda nishonlanadi. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyo bo'ylab 7000 dan ortiq til mavjud va ulardan 6,700 tasi mahalliy aholi so'zlashadigan va dunyoda eng katta xavf ostida qolgan tillardandir. BMTning 2019-yilda nishonlangan "Xalqaro Mahalliy tillar yili" doirasida qabul qilingan qaror loyihasiga ko'ra, UNESCO, davlatlarni mahalliy tillarni asrab-avaylash uchun mablag' ajratib, mexanizmlar yaratishga chaqirmoqda. UNESKO ma'lumotlariga ko'ra mahalliy aholi, hatto mamlakat aholisining kichik qismini tashkil etsa ham, madaniy va til xilma-xilligining eng muhim namunasidir. Tillarning yo'q bo'lib ketishi esa, qaytarib olish imkonsiz kosmopolitizm va insoniyatning umumiy merosining yo'q bo'lib ketishi degan ma'noni anglatishi mumkin. UNESKO e'lon qilgan yo'qolib borayotgan tillar atlasiga ko'ra, 1950-yildan beri hech kim gapirmagan tillar "yo'qolib ketgan" tillar hisoblanadi. Bir tilning "xavfsiz" deb hisoblanishi uchun u til, barcha avlod tomonidan hech qanday cheklovsiz gaplashilishi lozim. Ushbu tasnifga ko'ra, hozirgi kunga qadar gapirilgan tillarning 4 foizi "yo'qolgan" deb hisoblanadi. Bugungi kunda so'zlashadigan tillarning 10 foizi "kritik darajada yo'qolib ketish xavfi ostida", 9 foizi "shiddatli ravishda yo'qolib ketish xavfi ostida", 11 foizi "mutlaqo xavf ostida" va 10 foizi "himoyasiz"

	deb tasniflanadi. UNESCO, bu tillarning joriy asr oxiriga kelib yo'q bo'lib ketishidan xavotirda.
M17	**XXI asr boshida Turkiya davlat boshqaruvi tizimidagi islohotlar** 2014-yil 10-avgustda Turkiya Prezidentligi uchun bo'lib o'tgan saylovlarda Rejep Tayyib Erdo'g'an g'olib chiqadi va prezidentlik lavozimiga saylanadi. 2018-yil bo'lib o'tgan navbatdan tashqari saylovlarda yana prezident etlb saylanadi. 2017-yil 16-aprelda Turkiyada Konstitutsiyaviy referendum bo'lib o'tadi. Unda Konstitutsiyaga 18 ta o'zgartirish kiritish masalasi qo'yiladi. Bu o'zgartirish Turkiyani Parlament Respublikasl shaklidan Prezidentlik Respublikasi shakliga o'tkazishni ko'zda tutgan. Shuningdek, Prezidentlik hokimiyatini mustahkamlash, Bosh Vazirlik lavozimini tugatish, Parlament deputatlari sonini ko'paytirish, Sudyalar Oliy Kengashi tizimida islohotlar ot'kazish kabi masalalar ham kun tartibidan joy olgan edi. Boshqaruvning Prezidentlik shaklini joriy etishni Adolat vaziri Jemil Chichek 2005-ylida taklif etgan edi. Bu taklif o'sha yillari Bosh Vazir lavozimida bo'lgan Rejep Erdo'g'an tomonidan ma'qul-lanadi. O'sha paytdan boshlab "Adolat va taraqqiyot" partiyasi a'zolari bu taklifni ilgari surib kelgan. 2011-yil saylovlarda g'alaba qozongan "Adolat va taraqqiyot partiyasi Konstitutsiyani isloh qilish haqidagi takliflarni rasmiylashtirib, parlamentga taqdim etadi. Ikki yil davomida muhokama qilingan ushbu takliflar asosida bosh qonunning 60 ta moddasi tayyorlanadi.
M18	**Turkiyaning eng yangi davr tarixi.** Turkiya tarixini davrlashtirishning asosiy tamoyillari, so'nggi davrdagi tarixiy jarayonlar, tanzimat davri, yosh turklar harakat va hukumati, Turkiya mustaqilligi, Mustafo Kamol Otaturk davridagi Turkiya, Turkiyaning II jahon urushidagi ishtiroki va oqibatlari, 1960-2000 yillarda Turkiyadagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. Turkiya Respublikasi tarixi 1923-yilda Usmonlilar imperiyasi qulagandan so'ng zamonaviy Turkiya Respublikasining tashkil topishi bilan boshlanadi. Yangi Respublika Mustafo Kamol Otaturk tomonidan asos solingan bo'lib, uning islohotlari mamlakatni qonun ustuvorligi va modernizatsiyaga katta e'tibor qaratgan dunyoviy, demokratik respublika sifatida belgilab berdi. Otaturk davrida mamlakat asosan

	qishloq va qishloq xo'jaligi jamiyatidan sanoatlashgan va shaharlashgan jamiyatga aylantirildi. 1924-yilda yangi konstitutsiyaning qabul qilinishi va 1946-yilda ko'ppartiyaviylik tizimi o'rnatilishi bilan siyosiy tizim ham isloh qilindi. XXI asrda Turkiya mintaqaviy va xalqaro ishlarga tobora ko'proq aralashib, Yaqin Sharqda tobora muhim davlatga aylandi. 1923-yil 29-oktabrda Turkiya Respublikasi e'lon qilindi va Otaturk birinchi prezident etib saylandi. Ikkinchi konstitutsiya Buyuk Millat Assambleyasi tomonidan 1924-yil 20-aprelda ratifikatsiya qilingan.
M19	**Turk nomoddiy madaniy merosi** "Nomoddiy madaniy meros" jamoalar, guruhlar va ayrim hollarda shaxslar o'z madaniy merosining bir qismi sifatida belgilaydigan amaliyotlar, ko'rinishlar, ifodalar, bilimlar, ko'nikmalar va tegishli vositalar, jihozlar va madaniy makonlar tushuniladi. Avloddan-avlodga o'tishi mumkin bo'lgan bu nomoddiy meros elementlari jamoalar va guruhlarning o'z muhiti, tabiati va tarixi bilan o'zaro munosabatiga qarab yangi avlodlarga o'tadi. Turkiya YUNESKOning nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga 18 ta obyekt bilan eng ko'p obyektni ro'yxatdan o'tkazgan 5 davlat orasidan o'rin olgan hisoblanadi. YUNESKO tomonidan e'lon qilingan nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga Turkiyadagi Maddohlik (2008), Mavlaviy Samo marosimlari (2008), Karago'z (2009), Oshiqlik an'analari (2009), Navro'z (2009-yil – Turkiya, Ozarbayjon, Hindiston, Eron, Qirg'iziston, Pokiston, O'zbekiston bilan birgalikda), Kirkpinar yog'li kurash festivali (2010), Alevi Bektoshi Ritual Semah (2010), An'anaviy suhbat uchrashuvlari (2010), Tantana Keshkegi an'anasi (2011), Mesir ma'juni festivali (2012), turk qahvasi madaniyati va an'anasi (2013), Ebru: turk qog'oz bezash san'ati (2014), an'anaviy chinni mahorati (2016), Yupqa non tayyorlash va ulashishi madaniyati: lavash, qotirma, jupqa, yufka - (2016), Bahor: bayram: Hıdrellez - (2017), hushtak tili (2017), Dede Qorqud/Qorqit Ata/Dede Korkut merosi: epik madaniyat, xalq ertaklari va musiqasi (2018), an'anaviy turk kamondan otish (2019) kabilar kiritilgan.
M20	**Turk-o'zbek adabiy aloqalari tarixi** O'zbek xalqi qadimdan O'rta Osiyo, Volgabo'yi, Qrim va

	Kavkazortidagi qardosh xalqlar qatori xorijiy sharqdagi turkiy xalqlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lib keldilar. Amir Temur va undan keyingi temuriylar davrida yetishgan Shohruh Mirzo, Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy, Ulug'bek, Bobur Mirzo, Ali Qushchi kabi turkistonlik buyuk shoh, olim va shoirlar ta'sirlari Turkiyada ham kuchli bo'ldi. Undan so'nggi asrlarda ham bu aloqalar davom etdi. Turkiya XIV-XV asrlarda jahonning ilg'or madaniy mamlakatlaridan biri edi. Sulton Boyazid II temuriyzodalar bilan do'stona munosabat o'rnatib, ikki mamlakat o'rtasida faqat savdo emas, ayni paytda madaniy aloqalarning ham ravnaq topishiga keng imkoniyatlar yaratdi. O'zbek xalqining Sharq xalqlari, shu jumladan, turk xalqi bilan adabiy aloqalari uzoq zamonlarga borib taqaladi. U o'z rivoji davomida turli tarixiy davr sharoitlari ta'sirida turlicha yo'nalish va xususiyat kasb etib borgan. Bu aloqalar, ayniqsa, 1905-1925-yillarda ular hayotida ro'y bergan muhim ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar ta'sirida yanada rivojlana boshlagan. So'nggi asrlarda ham bu aloqalar davom etdi. XVII-XIX asrlarda Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari bilan Turkiya o'rtasida ijtimoiy-siyosiy va madaniy aloqalar ayniqsa kuchaygan edi. Bu davrda Umarxon, Feruz, Ogahiy, Muqimiy, Furqat va boshqalarning asarlari turli yo'llar bilan Turkiyada keng tarqala boshlaydi. XIX asr oxirlarida Turkistonning ilg'or ma'rifatparvarlaridan Ishoqxon Ibrat, Zokirjon Furqat va boshqalar Turkiyada ham bo'ladilar. O'zbekiston mustaqilligiga erishganidan keyin (1991-yildan) qaytadan mustaqil rivojlana boshladi. O'zbek shoir va adiblari endi dunyoning boshqa mamlakatlari ijodkorlari kabi xorijiy qardosh turk xalqlari bilan ham emin-erkin adabiy-madaniy aloqaga kirisha boshladilar, o'zaro bir-birlariga bordi-keldi qilib, bir-birlarining asarlarini o'z ona tillariga tarjima qilishib, targ'ib qila boshladilar.
M21	**Taniqli turk olim va adiblari.** Eng mashhur turk yozuvchilaridan biri: Halide Edib Adivar. U turk adabiyotining kashshoflaridan biri sifatida tanilgan. U nafaqat yozuvchi, balki ijtimoiy faol hamdir. U o'z asarlarida o'z davridagi ijtimoiy-siyosiy voqealarga sezgir yondashib, shu masalalarda ogohlikni oshirgan. Halide Edib Adivarning serqirra shaxsiyati va ta'sirli hayotiy hikoyasi nafaqat adabiyot olami, balki Turkiya tarixini ham boyitdi. Orhun Pamuk bugungi turk adabiyotining eng taniqli va ko'zga ko'ringan adiblaridan biridir. Pamuk o'z asarlari bilan turk adabiyotini

	xalqaro miqyosda namoyon etgan yozuvchidir. Pamuk adabiyot olamidagi fikrlari va tanqidlari bilan ham diqqatni tortadi. U turk adabiyoti qatori jahon adabiyotiga ham salmoqli hissa qo'shib, madaniyatlararo muloqotni mustahkamlashga hissa qo'shgan. Aziz Sanjar – turk olimi, biokimyogar. 2015-yilda kimyo bo'yicha Nobel mukofotini Tomas Lindal va Pol Modrich bilan birgalikda „DNKni ta'mirlash mexanizmlari bo'yicha tadqiqotlari" uchun qo'lga kiritgan. AQSH Milliy Fanlar Akademiyasi a'zosi (2005). Dallasdagi Texas universitetida molekulyar biologiya bo'yicha magistratura va aspiranturani tamomlagan (MS, 1975; Ph. D., 1977). 1982-yildan Shimoliy Karolinadagi Chapel Hill universitetida (1988-yildan professor) faoliyat olib borgan.
M22	**Turkiyada rivojlangan yetakchi sohalar** Mamlakat iqtisodiyotiga salmoqli ta'sir ko'rsatayotgan yetakchi sohalar, texnika taraqqiyoti, sog'liqni saqlash sohasi rivoji, ishlab chiqarish, sanoatda erishilayotgan natijalar, sun'iy intellekt yaratish va undan foydalanish texnikasi haqida. Sanoat - Turkiya iqtisodiyotining asosini tashkil etadi. Bu sohada asosiy ustuvorlik yengil sanoat va tayyor kiyim ishlab chiqarishga qaratilgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlab chiqarish hamda oziq-ovqat sohasi ham alohida o'ringa ega. Mashinasozlik sanoati yildan-yilga kengaymoqda. Bu sohada avtomobil qurilishi bilan kimyo sanoati yetakchilik qiladi. Keyingi 20 yilda xususiylashtirishga qaratilgan keng miqyosli dasturlarning tatbiq etilishi sanoatdagi davlat kapitali ishtirokini keskin cheklagan. Iqtisodiyotni erkinlashtirish siyosati esa sanoatga chet el kapitalini jalb etish va ilg'or texnologiyalarni olib kirishga bo'lgan qiziqishni orttirgan. Mamlakatda qulay investitsiyaviy muhit yaratilgan. Yuqori malakali va arzon ishchi kuchining shakllanishi yuqori sur'atda tezlashgan. Bu, o'z navbatida, qo'shni davlatlar, ayniqsa, Yevropa bozorini egallash imkoniyatini tug'dirgan. Asosiy raqobatchi davlatlar Xitoy, Vetnam, Hindiston, Bangladesh va Pokistondan keltiriladigan arzon tovarlar ta'sirida turk kompaniyalari keyingi yillarda qimmat brend mahsulotlar ishlab chiqarishga o'ta boshlaganini kuzatish mumkin.
M23	**Turkiyaning turkiy tilli davlatlar hamkorlik ittifoqidagi o'rni**

	1990-yillar boshida Turkiya turkiy integralizmning lokomotivi bo'lishga hali tamoman tayyor emas edi. Shu sababli bu ishning strategiyasi va taktikasi "sinab ko'r-xato qil-tuzat" shaklida amalga oshirila bordi. Ko'p qirrali siyosat yuritish orqali mintaqada va dunyoda ko'proq e'tibor va ta'sir kuchiga ega bo'lish siyosatini o'tkaza boshlagan 2000-yillardan keyin Turkiya turkiy tilli mamlakatlarda keng ko'lamli siyosatni boshlagan davlatlardan biri bo'ldi. Turkiyaning mintaqadagi rivojlanishga ko'maklashish siyosati beshta asosiy ustunga ega: aloqa, transport, madaniyat, ta'lim, iqtisod va energetika sohalarida hamkorlik. Ushbu maqsadlarga muvofiq, Turkiya tomonidan qilingan eng muhim qadam TIKAning (Turkiya Respublikasi Bosh vaziri idorasi huzuridagi Turkiya hamkorlik va taraqqiyot agentligi) tashkil etilishi bo'ldi. Turkiyaning Markaziy Osiyodagi qardosh davlatlar bilan aloqasini ildam rivojlantirishda TIKA taraqqiyotga ko'maklashish agentligi sifatida muhim rol o'ynadi. Bu jarayonlar 2009-yil 3-oktabrda Naxchivan shahrida imzolangan Naxchivan bitimi bilan Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkiya ishtirokida tuzilgan yangi xalqaro tashkilot - Turkiy tilda so'zlashuvchi mamlakatlarning Hamkorlik Kengashi yoki Turkiy Kengash o'rtasida tashkil etilishi bilan o'z mantiqiy poyoniga yetdi. 2009-yil 29-sentabrda Ozarbayjon Respublikasi poytaxti Boku shahrida Turkiy tilli davlatlar parlament assambleyasining 1-umumiy yig'ilishi bo'lib o'tdi.
M24	**Turkiya-O'zbekiston hamkorlik aloqalari.** Qardosh xalqlar o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari, O'zbekiston Respublikasi va Turkiya Jumhuriyatining iqtisodiy, ilmiy, madaniy sohalardagi hamkorlik aloqalari, natijalar, erishilayotgan yutuqlar. Hamkorlikda rivojlanayotgan sohalar va ularning asoslari haqida. Turkiya va O'zbekiston hamkorlik aloqalari uzoq tarixga ega. Ana shu ildizlarga yetmasdan turib, ikki xalq o'rtasidagi munosabatlarni to'liq anglab bo'lmaydi. Sog'lom asosga ega bugungi aloqalarning mustahkamligi ham shundan. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin sobiq tuzum davrida Turkiya bilan uzilib qolgan do'stlik va hamkorlik aloqalari qayta tiklandi. Siyosiy, iqtisodiy, madaniy, fan-texnika, turizm sohalarida o'zaro manfaatli, teng huquqli munosabatlar yo'lga qo'yildi. 1992-yil aprel oyida Toshkentda Turkiya Jumhuriyatining elchixonasi, 1993-yil yanvar oyida Anqarada O'zbekiston Respublikasi

	elchixonasi ish boshladi. Davlat rahbarlarining o'zaro tashriflari yaxshi an'anaga aylandi. 1995-yil 9-iyuldan buyon ikki mamlakat o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha Hukumatlararo komissiya faoliyat yuritib keladi. Quruqlik orqali yuk tashish bo'yicha mavjud kelishuvga asosan, 2013-yildan boshlab xalqaro avtomobilda yuk tashish bo'yicha qo'shma komissiya majlisi o'tkazib kelinadi. Shuningdek, 2002-yildan boshlab O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasi vakillari Turkiyaning yetakchi shifoxonalarida malaka oshirish kurslarini o'tab kelishayotganini ham ta'kidlash lozim. Turkiyalik shifokorlar mamlakatimiz tibbiyot muassasalarida jarrohlik amaliyotlarini bajarishmoqda. Hamkorlikning boshqa sohalari bilan birga, madaniy-gumanitar aloqalar ham izchil rivojlanmoqda. Ikki mamlakat jamoatchiligini O'zbekiston va Turkiyaning tarixiy, madaniy, turizm, ilm-fan va ma'naviy salohiyati bilan yanada kengroq tanishtirishga yo'naltirilgan tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.
M25	**Turkiyaning turizm salohiyati.** Mamlakatning turistik salohiyati, tarixiy-madaniy inshootlar, e'tiborga molik yirik mashhur shaharlar, muzeylar va masjidlar, tabiat manzaralari. Kapadokya, Antalya turistik hududlar sifatida, dengiz va ko'llar, ohakli suvlari haqida. Jahonda Turkiya sayyohlarni jalb etish bo'yicha Fransiya, AQSh, Ispaniya, Xitoy va Italiyadan keyin oltinchi o'rinda turadi. Ammo Turkiya uchun bu ko'rsatkich yetarli emas, davlat sayyohlar sonini yanada ko'paytirish maqsadida, turizmga alohida e'tibor qaratmoqda. Turkiyada taxminan 2 mln. kishi bevosita turizmda, yana 1,5 mln. odam aralash sohalarda ish bilan band. Turkiyada turizm rivoji uchun barcha imkoniyat mavjud. Mamlakatning eng ko'p turist tashrif buyuradigan shaharlari sirasiga islom va Vizantiya arxitektura yodgorliklari maskani - Istanbul, vulqonlar natijasida g'aroyib shakllangan tabiat yaratiqlari va g'or shaharlar makoni - Kapadokiya, antik davr yodgorliklari va qadimgi grek va Rim xarobalarini o'zida mujassam etgan dengiz sohillarining kurort joylari, Likiy, Kariy yo'laklari va Pamukqal'ani kiritish mumkin. Turkiyaning eng mashhur sayyorlik shaharlari: Antaliya, Side, Marmaris, Alaniya, Kemer, Bodrum hisoblanadi. Turkiyada keyingi yillarda ekoturizm sohasi rivojlanmoqda. Ekoturizmning asosiy maqsadi - flora va fauna vakillarini ular yashaydigan tabiiy maskanda ko'rish, bu joylarning tabiiy va etnografik xususiyatlari bilan tanishish, ekologik

	savodxonlikni oshirish hisoblanadi.
M26	**Turkiyada sport va ommaviy axborot vositalari** Osiyo va Yevropa qit'alarining ko'prigi hisoblangan Turkiya mamlakati o'zining uzoq yillik tarixi va har bir sohada jadal rivojlanishi bilan ajralib turadi. Har bir soha singari sport yo'nalishi ham rivojlanish bosqichida. Mamlakatda bugungi kunda sport kurashlari, taekvondo, qishki sport turlari, tennis, futbol, basketbol, voleybol, gandbol, yengil atletika singari sport turlari aholi o'rtasida ommalashgan. Turkiyalik sportchilar Yevropa va jahon chempionatlari, Olimpiya o'yinlarida doimo kuchli raqobat tug'diradi. Barcha turklar sportni juda yaxshi ko'radi va sportchilarni hurmat qiladilar. Turklar uchun eng mashhur sport turi – bu futbol. «Galatasaroy» va «Fenerbaxche» mahalliy futbol klublari ko'plab muxlislarga ega. Turkiya qizlarining eng sevimli sport turi bu tennisdir. U yerda mazkur sport turi bilan shug'ullanish uchun qulay shart-sharoitlar va imkoniyatlar mavjuddir. Bu imkoniyatdan unimli foydalanayotgan tennis federatsiyasi yil davomida ITF, WTA, ATP musobaqalarini munosib tarzda o'tkazib keladi. Buning natijasida tennis ham yoshlar o'rtasida ommalashib bormoqda. Turklar jangovar sport turlari, ayniqsa, kurashni juda yaxshi ko'radi. Dengiz qirg'oqlari atrofida yugurish, uzoq masofaga suzish, sohilda voleybol o'ynash ham ommalashgan.
III. Mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: amaliy (A) **Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.**	
A1	Turkiya tarixi haqida (aholisi, tili, dini, davlat ramzlari)
A2	Turkiyaning geografik joylashuvi, iqlimi, hududiy bo'linishi
A3	Turkiya ta'lim tizimi
A4	Turkiyaning eng qadimgi yirik shaharlari
A5	Turkiya milliy madaniyati (san'at, bayramlar, urf-odatlar)
A6	Turkiya iqtisodiyoti. (Sanoati, ishlab chiqarish korxonalari, savdo, qishloq xo'jaligi)
A7	Turkiya-O'zbekiston hamkorlik aloqalari
A8	Turkiy tillar va Turkiyada til siyosati
A9	Turkiya oliy ta'lim tizimi
A10	Turk dunyosi hamkorlik aloqalari
A11	Turk-o'zbek adabiy aloqalari
A12	Turk-islom madaniyati va uning jahon sivilizatsiyasiga ta'siri
A13	Turkiy davlatlar tashkiloti tuzilishi, faoliyati

A14	O'zbek-turk hamkorlik aloqalari
	IV. Mashg'ulotlar shakli: seminar (S)
S1	Turkiya haqida umumiy ma'lumot, o'ziga xos xususiyatlari
S2	Turkiyaning geografik tuzilishi, tabiati, dengiz va tog'lari
S3	Turkiya tarixidagi ahamiyatga molik voqea va hodisalar
S4	Mamlakat boshqaruvi, davlat ramzlari
S5	Turkiya respublikasida saylovlar, siyosiy partiyalar
S6	Turkiyada san'at va madaniyat, milliy an'analar
S7	Turkiya iqtisodiyoti (sanoati, qishloq xo'jaligi)
S8	Turkiya ommaviy axborot vositalari va sport
S9	Turk dunyosi allomalari
S10	Turkiyada yoshlar hayoti

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Mamlakatshunoslik" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari Ish turi
1.	Turkiy tilda so'zlashuvchi davlatlar ramzlari.
2.	Turkiy tilda so'zlashuvchi davlatlar xaritalarini tayyorlash.
3.	Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi madaniy aloqalar.
4.	Turkiyaning yangi davr tarixi
5.	O'zbekiston va Turkiya davlatlarining urf-odatlari, milliy bayramlari va an'analari
6.	Turkiya va O'zbekistonda talaba-yoshlarning bilim olishi va dam olish imkoniyatlari
7.	Turkiya va O'zbekistonda ta'lim tizimi
8.	O'zbekiston va Turkiyada xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni
9.	BMTga a'zo mamlakatlar (turkiyzabon davlatlar misolida)
10.	Turk va o'zbek xalqi milliy madaniyati qiyosi
11.	Turk tilining dunyo tillari orasida tutgan o'rni
12.	Turk va o'zbek allomalari
13.	Turkiy davlatlar tashkilotining tuzilishi haqidagi maqolalarni tahliii
14.	Hasan Ato Abushiyning "Turkiy qavmlar tarixi" kitobini o'qish va munosabat bildirish

15.	L.N.Gumilevning "Qadimgi turklar" monografiyasini o'qish va munosabat bildirish
16.	A.Inanning "Türkiye Cumhuriyeti ve Türk Devrimi" monografiyasini o'qish va munosabat bildirish
17.	Turk va o'zbek bastakorlari
18.	Turkiya Respublikasining tashkil topishi
19.	N.Kosog'luning "Türk dünyası tarihi ve türk medeniyeti üzerine düşünceler" monografiyasini o'qish va munosabat bildirish
20.	Usmoniylar davri madaniy hayot
21.	Usmoniylar-Temuriylar munosabatlari
22.	Turk madaniyati taraqqiyotida Ipak Yo'lining ahamiyati
23.	Abdurahmon Guzelning "Türk kültüründe ipek yolu" nomli monografiyasini o'qish, munosabat bildirish
24.	M.Emin Şarhanning "Özgeçmişlerimiz" she'rini o'qish va munosabat bildirish
25.	Turkiy davlatlar tashkiloti Samarqand sammiti
26.	I.Atalaynig "Türkiye Coğrafyasi" nomli monografiyasini o'qish va munosabat bildirish
27.	Turk-o'zbek milliy o'yinlari qiyosi
28.	Turkiya Respublikasi davlat ramzlari
29.	Turkiya Respublikasi tarixiy-madaniy obidalari
30.	Dunyoga mashhur Turkiya shaharlari
31.	Turk milliy madaniy merosi
32.	Zamonaviy Turkiya tarixi

"Mamlakatshunoslik" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, tili o'rganilayotgan mamlakat tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, madaniyati, iqtisodiyotiga oid mavzuda Turkiy tilda so'zlashuvchi davlatlar ramzlari, hamkorlik aloqalari, milliy-madaniyati, tarixiy obidalari va inshootlari, ta'lim tizimi haqida talabada bilim ko'nikmasini shakllantirish e'tiborga olingan. Masalan, turkiy xalqlar tarixi qadim o'tmishga taqalgan holda, juda uzoq tarixiy jarayonlarni boshdan kechirganligi, ular yashaygan hududlarda tashkil topgan davlatlar tarixi, qadimgi turklarning Kichik Osiyoga kelib o'rnashishi, usmoniylar emperiyasining tashkil topishi, Turkiya Respublikasining tashkil topishi, turizm salohiyati, shuningdek, mamlakat hayotiga doir bir qator ilmiy mongrafiyalar tavsiya qilingan.Talabalar ushbu mavzularda olib borilgan keyingi tadqiqotlar bilan tanishish natijasida keng ma'lumotlar bazasiga ega bo'ladilar va tahlil qila olish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • **"Mamlakatshunoslik"** fanidan talabalar tili o'rganilayotgan mamlakat tarixi, geografiyasi, iqtisodiyoti, ta'limi tizimi, mamlakat rivojiga hissa qo'shgan olimlar, ma'rifatparvarlarning faoliyati, mamlakatning turkiy xalqlar va qo'shni davlatlar bilan o'zaro hamkorlik munosabatlarini tushuntirib bera olish darajasida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • mamlakatshunoslikning sohaga oid nazariy va amaliy ma'lumotlarni hal qilishdagi asosiy fan sifatidagi o'rnini belgilash; mintaqa xalqlari tarixiy rivojlanishining asosiy qonuniyatlari va bosqichlarini baholash; o'rganilayotgan mintaqa xalqlarining madaniyati va tarixiy-madaniy obidalarga oid umumiy va xususiy masalalar, o'rganilayotgan mintaqa xalqlarining tarixi va turli bosqichlarda erishgan yutuqlarining umumbashariy sivilizatsion ahamiyati, ma'naviy asoslari, umumiy va milliy xususiyatlari, diniy konfessiyalarining umumiy va xos xususiyatlari haqida bilim va ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;*** • turkiy xalqlar tarixiy rivojlanishining asosiy omillari, mamlakat xalqi madaniyati va tarixi hamda turli bosqichlarda erishgan yutuqlarining umumbashariy sivilizatsion ahamiyatini to'g'ri belgilash bo'yicha ***malakaga ega bo'lishlari kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

	• ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • tarqatma materiallar; • ko'rgazmali qurollar; • video materiallar; • muammoli ta'lim; • qiyosiy tahlil. • Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Atalay I. Türkiye Coğrafyası. İnkilap Yayınları, 2017, Ankara 2. Ertan T.F. Başlangıçtan Günümüze Türkiye Cumhuriyeti Tarihi. Siyasal Kitabevi. 2012, Ankara 3. Beyoğlu A. Modern Türkiye Tarihi, Marmara Üniversitesi Yayınları. 2012 İSTANBUL 4. Zeynep KORKMAZ. Oğuz Türkçesinin Gelişimi. Türk Dil Kurumu Yayınları. 2020 Ankara 5. Ahmet B.ERCİLASUN. Türk Dil Tarihi. Akçağ Yayınevi 6. Mehmet SARAY. Yeni Türk Cumhuriyetleri tarihi. Türk Tarih Kurumu 2019, Ankara 7. Kafesoğlu I. Türk Milli Kültürü. Boğaziçi yayınevi İstanbul 1984 8. Huseyin Namık ORKUN. Türk sözünün aslı. TDK 9. Патрик Кинросс. «Османская империя». Лондон. -2003. 10. Анна Мария Либерти, Фабио Бурбон. Древний Рим. История цивилизации, которая правила миром. АСТ- Астрел. — 2004. 11. Salimov T.O'. Jahon tarixi. (Yevropa mamlakatlari V - XV asrlarda). Toshkent. "Universitet". - 2014. 12. Turkiya tarixi. O'quv qo'llanma. TDSHU. 2017-yil. **Qo'shimcha adabiyotlar:** 13. Yaşar YÜCEL, Ali SEVİM. Türkiye Tarihi. Tirk Tarih Kurumu Basımevi 1992 Ankara 14.NEVZAT KÖSOĞLU. TÜRK DÜNYASI TARİHİ VE TÜRK

	MEDENİYETİ ÜZERİNE DÜŞÜNCELER. ÖTÜKEN 15. MİDHAT SERTOĞLU. MUFASSAL OSMANLI TARİHİ -6 CİLT TTK 16.AFET İNAN. TÜRKİYE CUMHURİYETİ VE TÜRK DEVRİMİ. TTK 17.Lev Nikalayevich Gumilev. Qadimgi turklar. "Nauka" nashriyoti, 1967 18.Qosimov A. Turkiya. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 1992 19.Hasan Ato Abushiy. Turkiy qavimlar tarixi. "Cho'lpon" nashriyoti, Toshkent, 1993 20. Kafesoğlu I. Türk Tarihi.Türk Dünyası El Kitabı I 1995 Ankara 21. Togan A. Z.V. Bugünkü Türk İli ve Yakın Tarihi. İstanbul. 1942 22. Türk Dünyası İncelemeleri dergisi. 2020-2023, Ege Üniversitesi Basım ve Yayınevi. ISSN: 1301-2045 23. "Turkologik tadqiqotlar" jurnalining 20223-2024 yillardagi sonlari. ISSN: 2992-9229 24. Ayshe Melek O'zyetgin. Usmoniylar Imeriyasida diplomatiya va mehmondorchilik. Mas'ul muharrir va tarjimon B.Rafiyeva. Bilnet matbaa va nashriyot uyi, Istanbul 2023 25. Xaritalarda Otayurt. Turkiya Respublikasi tashkil topishining 100 yilligi munosabati bilan chiqarilgan ko'rgazma katalogi, Toshkent, 2023
7.	Fan dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024-yil 24-avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar**: **R.Ruzmanova** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, " O'zbek tilshunosligi" kafedrasi dotsenti.
9.	**Taqrizchilar:** **Z.Boynazarov** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, " O'zbek tilshunosligi" kafedrasi dotsenti. (tel.:+998995829381) **Bayram BILIR** – Samarqand davlat chet tillar instituti sharq tillari fakulteti Yaqin sharq tillari kafedrasi dotsenti, PhD. (tel.:+998931961627)

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – Nosirov A.

O'zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri **dots. Mahmadiyev Sh.S.**

Filologiya fakulteti dekani **prof. Eltazarov J.D.**

SamDU o'quv ishlari bo'yicha 1-prorektor **prof. Soleyev A.S.**

Sharof Rashidov nomidagi samarqand davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (turk tili) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan "Mamlakatshunoslik" fani fan dasturiga

TAQRIZ

Mazkur fan dasturi Filologiya fakultetining filologiya va tillarni o'qitish (turk tili) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Mamlakatshunoslik" fani bo'yicha tuzilgan bo'lib, unda mazkur yo'nalish xususiyatlari hisobga olingan holda ma'ruza, amaliy mashg'ulot va seminar mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, ularni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar, fanni o'qitish natijalari (shakllantiriladigan kompetensiyalar), ta'lim texnologiyalari va metodlari, kreditni olish uchun talablar, baholash mezonlari hamda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Ushbu fan dasturida fanning mazmuni, talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar bo'lajak turkologlarning kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy hamda amaliy tushunchalarni qamrab olgan.

"Mamlakatshunoslik" fani yuzasidan talabalarning zaruriy bilim va ko'nikmalar olishiga mo'ljallangan mavzular qamrovi, mazmuni jihatdan ushbu fan bo'yicha talab qilinadigan malaka talablarini to'la qamrab oladi. Mavzular mazmunan va xronologik jihatdan to'g'ri tanlangan bo'lib, talabalarning ushbu fan yuzasidan to'liq bilim va ko'nikmalarni egallashiga mo'ljallangan.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu fan mazmuni va tuzilishi jihatdan fan dasturlariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va filologiya va tillarni o'qitish (turk tili) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan "Mamlakatshunoslik" fani fan dasturini ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

SamDU huzuridagi Turkologiya ilmiy-tadqiqot instituti dotsent, PhD. **Z.Boynazarov**